



XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2023 - yil 30 - dekabr

VI-70-126-8-110-K/23

Boysun tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati Boysun tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-886-son "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya Bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrda 22-04-13/7524-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Boysun tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-886-son "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrda VI-81-232-8-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-886-son Qonuniga (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Boysun tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 68,7 mlrd. so'm xarajatlari 148,4 mlrd. so'm prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 79,7 mlrd. so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun mahalliy budjeti daromadlar prognozi ko'rsatkichi 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag'larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-[ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-[ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-[ilovaga](#) muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024- yil uchun tuman mahalliy budjetiga viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertalar miqdori 5-[ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 1,3 mlrd. so'm miqdorida belgilansin.

9. 2024-yil tuman budjeti shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 768,8 mln so'm 6-[ilovaga](#) muvofiq belgilansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan 2024-yil Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetni boshqarishda xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

11. 2024-yil tuman soliq inspeksiyasini saqlash xarajatlari tuman mahalliy budjetidan, qishloq xo'jaligi bo'limini saqlash xarajatlari viloyat budjetidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari shahar va tumanlar budjetiga to'liqligicha o'tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

sement va ohaktoshdan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari

bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yig'imlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig'i;

yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga sotishdan aksiz solig'i;

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

elektr stansiyalaridan boshqa to'lovchilar tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi;

v) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib beriladi.

12. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Normamatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi Sh.To'rayev), tuman soliq inspeksiyasi (T.Sarmanov) tuman hokimligi va mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (T.Sarmanov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

solliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu solliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk solliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, solliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e‘tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (T.Sarmanov), Kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i (M.Jo‘rayev) 2023-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan solliqlarni to‘liq hisoblanishini ta‘minlasin.

15. Tuman soliq inspeksiyasi (T.Sarmanov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining janubiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan

karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kar'erning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydrlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Boysun tuman bo'limi boshlig'i (M.Mirzayev) tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i (T.Sarmanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

17.Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (U.Jo'rayev), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko'rsatsin.

18. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatishga va natijalari bo'yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarning qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul etib belgilansin.

19. Tuman hokimligi:

Tuman budjeti jami xarajatlarning 10 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

20. Mahalliy budgetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta‘mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta‘minlasin.

22. Mazkur qaror “Boysun” gazetasida rasman e‘lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



B.Sh.Shukurov

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrda
VI-70-126-8-110-K/23-son qaroriga
I-ilova

2024- yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari

ming so'mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I.	Mahalliy soliq va tushumlar	68 747 000,0
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	941 000,0
2	Yagona soliq to'lovidan Davlat budjetiga ajratmalar (aylanmadan olinadigan solik)	5 292 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	30 969 000,0
4	Aksiz solig'i, jami	31 042 694,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	<i>- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq</i>	9 975 000,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 654 000,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 511 000,0
7	Yuridik shaxslar yer solig'i	3 959 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	8 952 000,0
90	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	200 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	95 000,0
11	Ijara to'lovi	100 000,0
12	Yig'imlar	2 099 000,0
II.	Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	79 689 147,0
	Daromadlar hammasi	148 436 147,0

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrda
VI-70-126-8-110-K/23-son qaroriga
2-ilova

**Tuman budjetidan 2024- yilgi budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan
xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		148 436 147,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	148 436 147,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
1.	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	17 022 019,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	17 022 019,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
2.	Sog'liqni saqlash bo'limi	67 338 138,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	67 338 138,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3.	Madaniyat bo'limi	3 337 395,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 337 395,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
4.	Yoshlar siyosati va sport bo'limi	5 563 673,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	5 563 673,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi tashkilotlari	4 516 379,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 516 379,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6.	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi tashkilotlari	2 635 446,0

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 635 446,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7.	Irrigatsiya bo'limi	1 118 958,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 118 958,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8.	Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi tashkilotlari	1 884 258,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 884 258,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
9.	Tuman soliq inspeksiyasi	3 543 926,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 543 926,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10.	Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari	25 589 784,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	24 271 366,0
	Zaxira jamg'armasi	1 318 418,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
11.	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 886 171,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	15 886 171,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrda
VI-70-126-8-110-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat sorliqlaridan ajratmalar normativlari

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga sotishdan aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa'ridan foydalanlik uchun soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Vig'im-lar	Ijara to'lov-lari	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo'yicha) tushumlar
1	Boysun tumani	100	100	100	100	50	50	100	100	100	50	100	100	50	50

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrda
VI-70-126-8-110-K/23-son qaroriga
4-ilova

**Boysun tuman mahalliy budjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing
chegaraviy hajmi**

ming so'mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	68 747 000,0	148 436 147,0
Boysun tumani	68 747 000.0	148 436 147,0

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrda
VI-70-126-8-110-K/23-son qaroriga
5-ilova

Boysun tuman mahalliy budjetining 2024- yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori	ming soʻmda
		shundan, aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar*
JAMI	79 689 147,0	21 067 694,0
<i>shundan</i>		
Boysun tumani	79 689 147,0	21 067 694,0

*tamaki , alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz soligʻi tushumlari hisobidan ajratiladigan mablagʻlar

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrda
VI-70-126-8-110-K/23-son qaroriga
6-ilova

**Tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 2024-
yil uchun**

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	768 840,0
	<i>Shundan</i>	
1	Boysun tumani	768 840,0